

AN’ANAVIY BANKLARNING RAQAMLI BANKLARGA AYLANTIRILISH YO’LLARI

O‘rinboyeva Mehribonu Doniyorjon qizi

FarPI, Iqtisodiyot yo‘nalishi talabasi

mehribonuxon@gmail.com

Axunova Shoxistaxon Nomanjanovna

FarPI, Iqtisodiyot kafedrasi dotsenti

sh.axunova@ferpi.uz

Annotatsiya

Raqamli bank — innovatsion bank texnologiyalaridan foydalangan holda bank xizmatlarini masofaviy ko‘rsatuvchi bank yoki uning tarkibiy bo‘linmasi. Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan an‘anaviy banklar va raqamli banklarning faoliyatini taqqoslash natijasida mamlakatimizdagi bank xizmatlarini rivojlantirish borasida xulosalar shakllantirilgan. An‘anaviy bank tizimlarini ham raqamlashtirish ko‘zda tutilgan.

Kalitli so‘zlar

Raqamli banking, an‘anaviy banklar, mobil ilovalar, online omonat, online hisoblarni yuritish

Kirish

Raqamli banking - bu jismoniy filiallari bo‘lmagan (yoki bir nechta) faqat onlayn banklar tomonidan mobil ilovalar yoki brauzerlar orqali taqdim etiladigan xizmatdir. Ushbu banklar neobanklar, raqib banklar, virtual banklar va mobil banklar deb ham ataladi^{35,36}. Mobil banking - bu bank yoki boshqa moliya instituti tomonidan taqdim etiladigan xizmat bo‘lib, o‘z mijozlariga smartfon yoki planshet kabi mobil qurilma yordamida masofadan turib moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish imkonini beradi. Tegishli internet-bankingdan farqli o‘laroq, u odatda dastur deb ataladigan dasturiy ta‘minotdan foydalanadi, maqsadda moliya muassasasi tomonidan taqdim etilgan. Mobil banking odatda 24 soatlik rejimda mavjud. Ba‘zi moliya institutlarida mobil banking orqali qaysi hisoblarga kirish mumkinligi, shuningdek, tranzaksiya qilinishi mumkin bo‘lgan miqdor bo‘yicha cheklovlar mavjud. Mobil banking internet mavjudligiga yoki mobil qurilmaga ma‘lumot ulanishiga bog‘liq.³⁷ Ko‘pincha quyidagi operatsiyalar va tadbirlar (barcha an‘anaviy bank xizmatlari mobil telefonlar, kompyuterlar va mos keluvchi smart-qurilmalar orqali 24/7, bank filialida mijoz bo‘lishi shart emas).

- Bank ko‘chirmalarini olish,
- Naqd pul yechib olish,
- Pul o‘tkazmalari,
- Tekshirish/jamg‘arma hisobini boshqarish,
- Depozit hisobvaraqlarini ochish,
- Kreditni boshqarish,

³⁵ Tivari, Rajnish; Buse, Stefan va Xerstatt, Kornelius (2006): Harakatdagi mijoz: Banklar va moliyaviy korxonalar uchun mobil bankingning strategik ta‘siri, in: CEC/EEE 2006, Elektron tijorat texnologiyasi bo‘yicha 8-IEEE xalqaro konferentsiyasi va 3rd IEEE materiallari. Korxonalar hisoblashlari, elektron tijorat va elektron xizmatlar bo‘yicha xalqaro konferentsiya (CEC/EEE’06), San-Fransisko, 522–529-betlar.

³⁶ Tivari, Rajnish; Buse, Stefan va Xerstatt, Kornelius (2006): Mobil banking biznes strategiyasi sifatida: Mobil texnologiyalarning mijozlar xulq-atvoriga ta‘siri va uning banklar uchun ta‘siri, in: Global kelajak uchun texnologiyalarni boshqarish - PICMET ‘06 materiallari.

³⁷ What is digital banking? Meaning, types and benefits” SDK.finance® veb-sayti. Mualliflik huquqi © 2022 TechFin

- Hisob-kitoblar,
- Boshqaruvni tekshirish,
- Tranzaksiya yozuvlari monitoringi.

Shubhasiz, raqamli bank dasturi barcha an'anaviy xizmatlarga kirish, tushunish va boshqarishni osonlashtiradi. Ushbu yondashuv banklarga eski biznesning qismlarini yangi tizimga o'tkazishdan oldin pastroq xavf tushunchalarini sinab ko'rish imkonini beradi. E'tiborga molik misollar orasida Goldman Sachs'dan Marcus, RBS' Bó va 26 milliondan ortiq mijozlarni to'plagan va 18 oy ichida rentabellikka erishgan Hindiston davlat banki YONO kiradi. Quyidagi statistika raqamli transformatsiya 2021 yilda banklar uchun ustuvor vazifa bo'lishi haqidagi taxminni tasdiqlaydi.”[3, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ³⁸“O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF5296-sonli farmoni imzolanganach, bank tizimiga chakana bank xizmatlariga ixtisoslashgan“raqamli” banklar va bank bo'linmalarini tashkil etish hamda innovatsion bank texnologiyalaridan foydalangan holda mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini yanada kengaytirish vazifasi yuklatilgan. Shunga ko'ra, O'zbekistonda 2020 yilda “Anorbank” va “TBC bank”lar raqamli bank sifatida ro'yxatga olindi. Bugungi kunda raqamli bank sanalmish “Anorbank” o'z mijozlariga mobil ilovalar yoki statsionar kompyuterlar orqali to'liq raqamli xizmatni taqdim etmoqda. Bu shuni anglatadiki, raqamli bank mijozi 24/7 tizimida bank xizmatlaridan foydalanishi mumkin. Ya'ni, raqamli bank tizimida mijozga mobil dasturi, mobil dasturga asosan esa yuqori texnologiyali IT-infratuzilma bilan ta'mirlangan bank operatsiyalarining yuqori moslashuvchanligi taqdim etiladi.”[4]³⁹. „An'anaviy va onlayn banklar - to'g'ridan-to'g'ri banklar sifatida ham tanilgan - ikkalasi ham sizga onlayn hisobingizga kirishni taklif qiladi va kursorni bir necha marta bosish yoki telefoningiz ekraniga tegish orqali pul o'tkazish yoki boshqa vazifalarni bajarish imkoniyatini taklif qiladi. Ularning ikkalasi ham bir xil qonun va qoidalarga bo'ysunadi - faqat onlayn hisoblar Federal Depozitlarni Sug'urtalash Korporatsiyasi (FDIC) tomonidan an'anaviy banklardagi hisoblar kabi kafolatlanadi. Xavfsizlik umuman bir xil bo'lib, ikkala tur ham sizning mablag'ingiz va shaxsingizni himoya qilish uchun shifrlash kabi choralarni qo'llaydi” [5].

1-jadval

Onlayn va an'anaviy banklarning bir-biridan faqri

Onlayn banklar	An'anaviy banklar
Omonatlaringiz uchun ancha yaxshi foiz stavkasini olishingiz mumkin	Hisob egalari so'ralganda do'konning qulay filiallarida shaxsiy xizmatdan foydalanishlari mumkin
Ba'zi onlayn banklarda to'lovlar kamroq va ulardan kamroq	Naqd pul o'tkazish ancha oson.
Aksariyat onlayn banklar hisob ochish uchun kam yoki minimal depozit talab qiladi.	An'anaviy banklarida ilovalar ham bor va ular yaxshilanmoqda
Xizmatlar tannarxining arzon bo'lishi (yirik bino va ofislarga zaruriyatning yo'qligi)	Bank xarajatlarining ko'pligi natijasida xizmatlar tannarxining yuqoriligi

• Onlayn bankni tanlashdan oldin, qaysi xususiyatlar siz uchun eng muhimligini hal qilish muhimdir.

• Qo'shimcha xarajatlarning yo'qligi internet-banklarga an'anaviy banklarga nisbatan afzalliklarni beradi, shu jumladan kamroq yoki past to'lovlar.

• Internet-banklarda shaxsiy munosabatlar, xususiy bankomatlar va cheklangan xizmatlar yo'q.

Bularni inobatga olgan holda an'anaviy bankdan ham kechib ketta olmasligimizni ko'rishimiz mumkun. Yani an'anaviy banklarni ham raqamlashtirgan holda bank faoliyatlarini yuritib borishimiz mumkun. Ularni yaxshilash yo'llari bo'yicha takliflar berib o'tsak, yani:

³⁸<https://lex.uz/ru/docs/-3494933>

³⁹ Yangilangan: 2022-yil 17-sentabr Ko'rib chiqqan: EBONY XOVARD Investopedia Dotdash Meredith veb-sayti

- Mobil ilovalarga yangiliklar kiritgan holatda ishlash tezligini oshirish;
- Mobil ilovalarga jismoniy va yuridik shaxslarning hisob varaqlarini boshqarishni yoʻlga qoʻyib berish;
- Mobil ilovalardan onlayn kreditlarni anʼanaviy tarzda banklar %larini pasaytirish hamda tez fursatda rasmiylashtirishni yoʻlga qoʻyish;
- Mobil ilovalarda har bir fuqarolarni xavsizlik darajasini himoyalashni kuchaytirish;
- Mobil ilovani 500 000 ming soʻmgacha boʻlgan oʻtkazmalari uchun % olmaslik;
- Mobil ilovada har oʻtkazmalar amalga oshirgan shaxslar uchun cashback yoki bonuslar yaratish va bu bonuslar evaziga shu bankning „Visa“ kartasini sovgʻa tariqasida ulashish hamda yashayotgan manziliga yetkazib berish xizmati;
- Mobil aloqa operatorlarni yaxshilash va mijozlarga eng mukammal tarzda tushuntirishlar berib borish 24/7 rejimida;
- Anʼanaviy banklarga ham sunʼiy intellektdan foydalangan holatda 24/7 rejimidagi aloqa markazini yaratish;

Shularni hisobga olsak, anʼanaviy banklarni koʻp faoliyatini avtomatlashtirgan boʻlamiz, yaʼni raqamlashtirgan. Fuqarolar faqatgina kassa amaliyotlarni, yaʼni naqd pul topshirgani kelishadi. Undan tashqari avtomatlarimizdan pul yechish (bankamot) shahobchalariga borishadi va inkassatsiya ishlari amalga oshirilib boriladi. Bu natijada qogʻozbozlik ishlari kamayadi, har bir shaxs bankka hujjat olib kelishi shart boʻlmay qoladi. Har bir ishni onlayn tarzda amalga oshiradi. Bundan tashqari bank tannarxini ham pasayishiga olib keladi. Oʻzbekiston Respublikasida birinchi raqamli banklardan boʻlib ochilgan⁴⁰. „Anorbank“ning 2022-yilning 1-choragida 660000 ming qoʻngʻiroqlari boʻyicha xizmat koʻrsatilgan, 33000 ming chiquvchi qoʻngʻiroqlar amalga oshirilgan. Bundan tashqari 70 000 TRIA kartalari, 9000 toʻlov kartalari, 14 000 MASTERCARD ochilgan. Yuridik shaxslar boʻyicha Tijorat takliflari yuborildi. 1000ga yaqin uchrashuvlar belgilandi, 200ga yaqin hisobvaraqlari ochildi. Hozirgi kunda „Anorbank“ AJ Shvetsariya bilan birgalikda sunʼiy intellekt qilishning birinchi bosqichida. Sunʼiy intellekt hozirda aloqa markazida hodimlar bilan gaplasha oladi, ularni tushunadi va ularga javob bera oladi. Bu raqamli xizmatlardan foydalanish vaqtini qisqartiradi. Bundan tashqari aloqa xizmatida matn xizmati ham mavjud. Hattoki tunda ham ijtimoiy tarmoqlardagi xabarlariga javob berishadi. Shunday qilib, bankda aloqa markazi mijozlarning qoʻngʻiroqlariga javob berish, ularga xizmat koʻrsatish, hisob raqam ochish va boshqa xizmatlar bilan shugʻullanadi”[6].

Xulosa

Demak, ⁴¹ moliyaviy xizmatlarning raqamli transformatsiyasi bank mijozlari uchun keng imkoniyatlar yaratib, moliyaviy faollikni oshirish uchun muhim bosqich sanalish bilan birga, mijozlarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi. Yaʼni, raqamli banklarning istiqbollardan biri, bu moliyaviy tarmoqlarni raqamlashtirish evaziga xizmatlar tannarxi 40-60 foizgacha pasaytirilishiga erishiladi. Mijozlar bankka tashrifi, hujjatlarni rasmiylashtirish uchun ketadigan vaqt hamda mablagʻlarini tejashiga imkon yaratadi. Bir soʻz bilan aytganda, tijorat banklarining transformatsiya jarayoni va raqamli bank tizimida ishlashga oʻzgarishi bu – yangi axborot texnologiyalarini rivojlanishi va butun dunyo boʻylab faol tarqalishiga javob hisoblanadi hamda raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi. Boshqacha aytadigan boʻlsak, raqamli moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish mamlakat bank-moliya tizimi ravnaqining muhim yoʻnalishi boʻlib xizmat qiladi”[6]. Yani yuqoridagilarni inobatga olgan holda hozirgi kunda Oʻzbekiston Respublikasi ham rivojlanayotgan mamlakatlar qatorida bank-moliya tizimida yangi raqamli bank tendensiyasi boshlanganligidan darak beradi. Shu sababli hozirda anʼanaviy faoliyat yuritayotgan banklar ham raqamli bank xizmatlarini

⁴⁰ www.Anorbank.uz – “Anor bank” AJning rasmiy sayti <https://youtu.be/xJWW62LBHvo>

⁴¹ „Raqamli bank xizmatlari va uning afzalliklari” m.k.avezov maqolasi, scientific2@scientificprogress.uz

rivojlantirishga katta e’tibor qaratishlari zamon talabiga aylanib bormoqda. Bularga bir misollardan⁴². „Sanoat Qurilish banki“ni misol qiladigan bo‘lsak hozirgi kunda sekin astalik bilan „Raqamli bank“ tamoyillarini tashkil etyapti. 2018-yilda Xalqaro Moliya Korporatsiyasi bilan o‘rnatilgan hamkorlikda bankni transformatsiya qilish ishlari boshlangan. Tahlil natijalariga asosida biznesning eng muhim 12 ta yo‘nalishi qamrab olingan holatda transformatsiya qilish dasturi iqlab chiqildi. Uning asosiy yo‘nalishlaridan biri bu raqamli bank xizmatlarini joriy qilish hisoblanadi.

Bugungi kunga kelib, mijozlarini uzoq masofadan turib bank xizmatlaridan foydalanish. Yuridik mijozlarni uzluksiz o‘zaro to‘lovlarini amalga oshirish imkoniyati yaratildi. Shuningdek, mijozlarga xizmat ko‘rsatishda qulaylik yaratish maqsadida Toshkent Shahar, Chilonzor tumanida “Xizmat ko‘rsatish markazi” ochildi va shuningdek uzluksiz ishlovchi o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatuvchi to‘lov markazlari yo‘lga qo‘yilgan, mobil ilovalar orqali mijozlar onlayn omonat, onlayn kredit, onlayn konversiyalarni amalga oshirishga ega bo‘lmoqdalar. Bundan tashqari bank ko‘lamini keng rivojlantirish maqsadida Toshkent shahridagi „Inxa“ universiteti talabalari hamda „Fido Biznes“ bank xizmatlari va amaliyotlarini avtomatlashtirish maqsadida SQBi moliyaviy texnologiya markazi tashkil etildi. Bu yerda tanlov asosida 12 nafar talaba tanlab olindi va bank tizimining xavfsizligi uchun zarur bo‘lgan turli dasturlar va chora tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Bu markazda ular moliyaviy bank sektorida kerak bo‘ladigan dasturiy ta’minotlarni hamda avtoregistratsiya yani bankka kirayotganizda oldin registratsiya qilinadi va undan so‘ng o‘zingizni kabinetgizga tashrif buyurishingiz mumkun bo‘ladi”[8].

Hozirgi kunda, Sanoat Qurilish Bank o‘z mijozlariga yangidan yangi raqamli xizmatlarni taklif qilmoqda. Bularga misol qilib, aytadigan bo‘lsak, yuridik shaxslar uchun alohida xizmatlar, yani ularga: bank mijoz dasturi, sms bank xizmati va mobil bank xizmatlarni taklif qilmoqda. Yana bir yangillik yuridik shaxslar uchun 24/7 rejimidagi uzluksiz tezkor xizmat turlari tashkil etildi. Jismoniy shaxslar uchun hozirda Joyda” ilovasi orqali berilgan barcha xizmat turlari yani: Masofadan turib, uzc card, xumo, xalqaro to‘lov kartalari va electron kashlyok, hisob raqamlar ochish uchun onlayn ariza berish, onlayn kreditlar onlayn omonatlar, kredit kartalar olish hamda bankka kelishdan oldin navbat olish ham shu ilova orqali amalga oshiriladi. Plastiklari tayyor bo‘lishi bilan oq bankka kelishi shart emas yani yana bir xizmat turi SQBning uylariga yetkazib berish xizmatidir. Kredit kartalarni ham onlayn tarzda oladi ularning ham avfzal ta’raflaridan biri kredit olgandan so‘ng 40kun ichida kredit qaytarilsa % to‘lamaydi. Yillik 26-30% gacha, 1-3yil muddatgacha beriladi. Onlayn magazinlar ham tashkil etilgan o‘zingiz uchun kerakli barcha maishiy texnikalarni va boshqa mahsulotlarni shu yerdan kreditga xarid qilishingiz mumkun. Bu yerda ham yetkazib berish xizmati ham mavjud. „Joyda” ilovasini xavfsizlik ta’rafi ham shundaki o‘tkazmalar amalga oshirilayotgan paytida, to‘lov amalga oshirsangiz xakerlar hujumiga uchramaslik uchun SMS xabarnomada kodi yozilgan bo‘ladi shu kodni kiritsagina to‘lovlar amalga oshiriladi yokida xakerlar pulini yechib olishi mumkun bo‘ladi. Kodini hech kimga aytmasslik kerak. Raqamlashtirish xujjatsiz va tez amalga oshiriladi va eng asosiysi korupptsiyaga yo‘l qo‘yilmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Tivari, Rajnish; Buse, Stefan va Xerstatt, Kornelius (2006): Harakatdagi *mijoz*: Banklar va moliyaviy korxonalar uchun mobil bankingning strategik ta’siri , in: CEC/EEE 2006, Elektron tijorat texnologiyasi bo‘yicha 8-IEEE xalqaro konferentsiyasi va 3rd IEEE materiallari. Korxonalar hisoblashlari, elektron tijorat va elektron xizmatlar bo‘yicha xalqaro konferentsiya (CEC/EEE’06), San-Fransisko, 522–529-betlar.
2. Tivari, Rajnish; Buse, Stefan va Xerstatt, Kornelius (2006): *Mobil banking biznes* strategiyasi sifatida: Mobil texnologiyalarning mijozlar xulq-atvoriga ta’siri va uning banklar uchun ta’siri , in: Global kelajak uchun texnologiyalarni boshqarish - PICMET '06 materiallari.
3. <https://lex.uz/ru/docs/-3494933>

⁴²“Sanoatqurilishbank” raqamli bank tamoyillarini joriy etmoqda” **Официальный сайт:** <https://uzreport.news/>

4. Yangilangan: 2022-yil 17-sentabr Ko‘rib chiqqan: EBONY XOVARD Investopedia Dotdash Meredith veb-sayti
5. „Raqamli bank xizmatlari va uning afzalliklari” M.K.Avezov maqolasi, scientific2@scientificprogress.uz
6. “What is digital banking? Meaning, types and benefits” SDK.finance® veb-sayti. Mualliflik huquqi © 2022 TechFin
7. www.lex.uz - O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi
8. www.Anorbank.uz – “Anor bank” AJning rasmiy sayti. <https://youtu.be/xJWW62LBHvo>
9. “Sanoatqurilishbank” raqamli bank tamoyillarini joriy etmoqda. Официальный сайт: <https://uzreport.news/>

